

ISTE'MOL BOZORIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI BOSHQARISH MEXANIZMI

Sh.Karimova

Assistant, Toshkent amaliy fanlar universiteti

***Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan tijorat banklarida chakana bank xizmatlari va ularning foydalanuvchilari tomonidan muqobil holatga keltirish amaliyoti haqida bo'lib, unda bugungi kundagi tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan chakana bank xizmatlarining iste'mol bozorida kamchiliklar, yutuqlar va xorij tajribasini qo'llashda qaysi jihatlari mamlakatimiz iqtisodiy muhiti uchun munosib ekanligi haqida qisqacha fikr bildirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Chakana bank xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari, mobil banking internet banking, bank-mijoz online xizmatlar.*

Kirish

Chakana bank xizmatlarini bugungi bank faoliyatining asosiy tushunchasi - "bank xizmati" ning umume'tirof etilgan talqini moliya bozorining ushbu segmentining rivojlanishini tushunish bo'yicha yangi nazar bilan qarashni talab etadi. Ko'pchilik o'ylaydiki bank xizmatlarini mijoz nomidan uning foydasiga amalga oshiriladigan operatsiyalar sifatida tasniflashadi. Ayrimlar esa, xizmatlarni "mijoz-bank" munosabatlari doirasida amalga oshiradi va bu mijozning mavjudligi operatsiyani xizmatga aylantirishni oldindan belgilab beradi deb hisoblaydi. Moliyaviy vositachi sifatida faoliyat ko'rsatgan bank, uning xizmatlariga talab mavjud bo'lsa, bankning bozor sharoitida mavjud bo'lishini ta'minlaydi.

Bank operatsiyasi - bu uning holatiga muvofiq amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq bank harakatlaridir. Bank operatsiyalari bank xizmatining asosini tashkil etadi. Huquqiy nuqtai nazardan, qonun hujjatlarida belgilangan bank operatsiyalari ro'yxati banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar doirasini belgilaydi. O'zbekistonda bugungi kunga kelib 36 ta banklar bo'lib ular xizmatlarini taqdim etish uchun muayyan harakatlarni bajarish va qoida tariqasida bir nechta bank operatsiyalarini bajarish kerak. Bundan kelib chiqqan holda, biz bank xizmatini mijozning ehtiyojlarini qondirishga, unga ma'lum foyda keltirishga qaratilgan, moliyaviy aktivlarning harakati yoki moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etish bilan bog'liq bo'lgan bank operatsiyalari majmui natijasi sifatida aniqlaymiz. Bank xizmatini murakkab, yaxlit tushuncha

sifatida ko‘rib chiqish va uning tarkibiy qismlarini, jumladan imtiyozlar, operatsiyalar, texnologiya, xizmatlar, hujjatlarni aniqlash alohida tarkibiy qismlarni o‘zgartirish orqali bank mahsulotlarining modifikatsiyasini yaratishga imkon beradi.

Aholiga bank xizmatlari ko‘rsatishning jadal rivojlanishi “chakana bank xizmatlari” atamasining paydo bo‘lishiga va faol qo‘llanilishiga olib keldi. Chakana bank xizmatlari jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish bilan bir qatorda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlariga ham xizmat ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Chakana bank xizmatlari - tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy va oilaviy ehtiyojlarni qondirish uchun aholiga taklif etilayotgan bank xizmatlari.

Tahlil va natijalar.

Bank xizmatlari quyidagi xususiyatlarga ega:


- nomoddiylik,
- ajralmaslik,
- saqlashning mumkin emasligi va sifatning o‘zgaruvchanligi.
- Bank xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlariga quyidagilar kiradi:
- shartnomaviy xususiyat,
- vaqt bo‘yicha bank xizmatlari ko‘rsatish muddati,
- qarz mablag‘laridan ustun foydalanish,
- davlat tomonidan qat‘iy tartibga solish, mijozlarga qaramlik,
- amortizatsiyasiz va patent himoyasining yo‘qligi;
- shaxsiy va oilaviy ehtiyojlarni qondirishga e‘tibor berish;

aholining banklarga bo‘lgan ishonchi va mijozlarning harakatchanligiga bog‘liqligi. Chakana bank xizmatlariga talab va taklifning mavjudligi bank xizmatlari bozorining segmenti sifatida qaraladigan chakana bank xizmatlari bozorining shakllanishiga olib keldi. Bu segmentning asosiy ishtirokchilari banklar (sotuvchilar) va aholi (xaridorlar) hisoblanadi. Chakana bank xizmatlari bozorida ishtirokchilar – O‘zbekistondagi barcha tijorat banklari, shuningdek, nomoliya tashkilotlari sonining ko‘payishi tufayli raqobat kuchaymoqda. Bank infratuzilmasini shakllantirish davom etmoqda, ammo bu jarayon bozor ehtiyojlaridan orqada qolmoqda. Chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning ijobiy omillari iqtisodiyotdagi ijobiy tendentsiyalar va fuqarolar daromadlarining o‘sishidir. O‘rganish davomida xorijiy banklarning aholiga xizmat ko‘rsatish tajribasini o‘rgandik. Tijorat banklari uchun quyidagi sohalarda xorijiy tajribani moslashtirish ayniqsa dolzarb bo‘ladi:

- imtiyozli uy-joy krediti olish imkoniyati bilan pul bozori hisobvaraqlari, maqsadli jamg‘arma depozitlari turlarini kengaytirish, joriy etish; xizmatlarni birlashtirish;
- mijozlarni segmentatsiyalash va shu asosda xizmatlarni joylashtirish;
- mijozlarni jalb qilish va ushlab turish dasturlarini ishlab chiqish;

- diversifikatsiyalashgan xizmatlarni sotish modellaridan foydalanish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2004 yil 24 sentabrdagi “Plastik kartalar orqali hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 445-sonli qaroriga** asosan Yagona umumrespublika protsessing markazi tashkil etilib, “Uzcard” to‘lov tizimi faoliyat yurita boshladi. 2020 yil 11 aprelda Yagona umumrespublika protsessing markazi MChJga “Uzcard” to‘lov tizimi operatori litsenziyasi Markaziy bank tomonidan taqdim etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2018 yil 19 sentabrdagi “Milliy to‘lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3945-sonli qaroriga** asosan Milliy banklararo protsessing markazi tashkil etilib, 2019 yilning I-choragidan boshlab “Humo” to‘lov tizimi ishga tushirildi. Milliy banklararo protsessing markazi MChJga 2020 yil 11 aprelda “Humo” to‘lov tizimi operatori litsenziyasi Markaziy bank tomonidan berildi. Mamlakatimizda bank kartalari infratuzilmasi 2020 yil 1 yanvar holatiga 20 547 ming dona bank kartalari, 392 361 ta to‘lov terminallari hamda 9 203 ta bankomat va infokiosklardan tashkil topgan. 2019 yil davomida ikkita milliy chakana (“Humo” hamda “Uzcard”) to‘lov tizimlarining Visa, Mastercard, China Union Pay hamda Mir xalqaro to‘lov tizimlari bilan integratsiyasi samarali amalga oshirildi. Quyidagi jadvalda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishning davriy ko‘rsatkichlarini ko‘rishingiz mumkin:



1-rasm. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish darajasi

Tadqiqot davomida chakana bank xizmatlari bozori balansini baholash uchun bozor muvozanati modeli taklif qilindi. Moliya bozori bank, fond va sug‘urta bozorlarini o‘z ichiga oladi, ularning har biri ham korporativ, ham xususiy mijozlarga xizmat qiladi. Aholiga bank xizmatlari ko‘rsatishning batafsil tarkibi O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi tasniflagichlar yordamida tahlil qilingan bo‘lib, ularning tahlili ularni tizimlashtirishdagi kamchiliklarni aniqlash imkonini berdi.

Umuman olganda bank va moliyaviy vositachilik doirasidagi xizmatlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Moliyaviy xizmatlarni bank va moliyaviy vositachilikka bo‘lish mezonini ularni litsenziyalash tartibi bo‘lishi kerak. Bank vositachiligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- kassa xizmatlari (naqd pulni qabul qilish va berish, shu jumladan bankomatlar orqali naqd pul o‘tkazish);

- to‘lov xizmatlari (soliqlar va yig‘imlar, jarimalar va yig‘imlar, ixtiyoriy badallar, xizmatlar uchun to‘lovlar, boshqa to‘lovlarni qabul qilish va o‘tkazish);

- hisob-kitob xizmatlari (hisob yuritish operatsiyalari, akkreditivlarni, yo‘l cheklarini, plastik kartochkalarni rasmiylashtirish va ularga xizmat ko‘rsatish);

- depozit xizmatlari (jamg‘arma depozitlari va depozitlari, o‘z mablag‘lari va investitsiya depozitlari bo‘yicha operatsiyalar va boshqalar);


- kredit xizmatlari (shu jumladan, iste‘mol, ta‘lim, ipoteka, garov va boshqa kreditlash);

- valyuta xizmatlari (valyuta sotib olish va sotish, valyuta konvertatsiyasi, boshqa xalqaro operatsiyalar).

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan statistic ma‘lumotga ko‘ra o‘rnatilgan infokioska va bankomatlarning soni quyidagi rasmda berilgan:

O‘rnatilgan bankomat va infokiosklar soni

1 yanvar holatiga



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Ikramova N.R. O‘zbekistonda chakana bank xizmatlari: xorij tajribasi va rivojlanish istiqbollari // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2014 yil, 1-bet.;
2. Трофимов Д. В. Конкуренентоспособност розничних банков [Електронний ресурс] / Д. В. Трофимов// Управление экономическими системами. – 2013. – №58. – Режим доступа: <http://uecs.ru/finansi-i-kredit>;
3. Никоноров В. В. Развитие розничних услуг коммерческих банков как основа повышения их конкурентоспособности [Текст]: автореф. канд. экон. наук: 08.00.10. - Волгоград: 2008, с. 6.;
4. Бекчанов М., Абдурахманов Р. Пластик карта-замонавий ҳисоб-китоб воситаси. // Бозор, Пул ва Кредит. №9. 2012. Б.14.;
5. Омонов А.А. Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бoшqариш масалалари. 08.00.07 – «Молиуа, пул муомаласи ва кредит» иqtисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун таqдим етилган диссертациуа автореферати. Toshкент, 2008, 24-25-бет.;
6. Алиqориев О. Тижорат банкларида молиуавий хизмат турларини ривожлантириш йо‘налишлари. иqt. фан. ном. ... дис. автореф. – Toshкент, 2011. - 28 б.
7. Гончарук С. А. Институционалние аспекти развитиуа сегмента розничних банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. унт им. К.Л. Хета-гурова - Шахти, 2018. - 183 с